


Ona yurting - oltin beshiging

TINCH



O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

2007-yil 8 – 14 -yanvar N:2 (66595)

Muassislar:

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,

«KAMOLOT» Yoshlar ijtimoiy harakati,

«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'limgan xalqaro xayriya jamg'armasi.

SAHIFALARDA

«IMKON»NING IMKONIYATI

BIR JAHON BOLALARMIZ

3 -BETDA

4 -BETDA

O'G'RIMI, TO'G'RI!??..

16 -BETDA



**CHEGARAMIZ
MUSTAHKAM**

Tog'am – Baxtiyor Qayumov haqiqiy harbiy. Ular Surxonaryo viloyatida xizmat qiladilar. Biznikiga yilda ikki marta kelib turadilar. Ularning qat'iy intizomli, tartibli ishlariga havasim keladi. Bizni doim tergab, o'qishimizni kuzatib turadilar. Tog'amning qo'llari ham oltinday. Uy ishlarining barchasini o'zları uddalab ketadilar. Yaqinda «O'zbekiston Qurolli kuchlariga 15 yil ko'krak nishoni» ta'sis etilgani harbiylar orasida ham quvonarli voqeaga aylanibdi.

Yurt osoyoishtaligi, xalqimiz tinchligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlash Vatan himoyachilaridan juda katta mas'uliyat, matonat va sergaklikni talab etadi. Shu bois, yosh avlodni vatanparvarlik, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash ularning har tomonlama yetuk, tinchlik posbonlari bo'lib yetishishida muhim o'rinn tutadi. Bu borada oylik doirasida o'tkazilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning ta'sirchanligi va samaradorligini oshirish alohida ahamiyatga ega. Barcha harbiy akalarimni kasb bayramlari bilan chin dildan qutlayman!

Aziz QURBONOV,
Andijon viloyati, Bo'z tumanidagi
2-maktab o'quvchisi.

Bosh muharrir minbari

Har tong qayta uyg'otgani uchun har bir ona Ollohga shukur qilsa, xalqaro Nobel mukofoti laureati Ernest Xeminguey butun insoniyat qabr sari yana bir kun yaqinlashdi, degan ekan. Bu achchiq haqiqat ko'ngilga tushkunlik solganida beixtiyor o'sha mukofot asoschisi, shvetsiyalik kimi yogar va mashhur biznesmen Alfred Nobel haqida o'ylayman. «O'lim sotuvchisi» deb nom olgan Alfred dinamitni yaratib, portlatuvchi moddalar bilan oldi-sotdi qilgan ekan. Uning otasi ham shu ish bilan mashg'ul bo'lgan. Ammo bu ota 21 yoshli o'g'li Emmanuelni sakkiz nafar ishchisi bilan o'z tajribaxonasida beixtiyor portlatib yuborgan va bu g'amdan umrining oxirida shol bo'lib qolgan...

**XOTIRJAMLIK
BERING!**

Ha, yomonlik yaratuvchilar, birovlarga yomonlik sog'inuvchilarning hayoti hech qachon tinch va xotirjam o'tmagan. Yoshingiz ulg'aygani sari olamga tiyrakroq boqib, ziyrakligingiz osharkan, qaytar dunyoning saboqlaridan yoqa ushlaysiz va inson qilmishiga yarasha o'z jannatini ham, do'zaxini ham shu dunyoda yaratib olarkan-da, deysiz. Buni qarangki, bu dunyoni 63 yoshida tark etgan mashhur olim barcha orttirgan molmulkini qimmatbaho qog'ozga aylantirib, fizika, kimyo, badiiy ijod bo'yicha qilingan ixtirolar qatorida mamlakat armiyasini kamaytirib, sovuq qurollarni qisqartirishga hissa qo'shgan tinchlikparvar odamga ham mening nomimdag'i mukofot berilsin, deb vasiyat qilib ketgan ekan.


Aziz bolalar, yil boshi – yo'l boshida sizlarga nega bu haqda to'xtalyapman?

Sababi – onaman. Har bir ona – tinchlik tarafdoi. Yana go'zal kiyim-kechaklar-u chiroli taqinchoqlar xaridori. Qolaversa, bu narsalar uning uchun tinch, farovon kunlarda kerak-da!

Solih farzandlar o'stirsam, chiroli uylarda yashab, qarindosh urug'lar-u do'st-qadrondarimni mehmon qilsam, deb turadi onalar. Shunday ekan, onalar dunyosi tinch, kunlari xotirjam bo'lishi uchun eng avvalo siz bolalar onalarga odob-u xulqda, ilm-u urfonda dalda berishingiz kerak. Axir har bir ona odamlarga yaxshilik qilsin, olamni gullatib yashnatsin deb farzand o'stiryapti. Onaga rahmatlar yog'diradigan, el-yurti koriga yaragan bolalarning umri uzun, yo'li yorug'dir. Axir o't-o'lanlar yomg'irdan, odamlar yaxshiligi sabab olgan olqish-u duolaridan ko'karishadi. Yangi yilda yoshingizga yosh qo'shildi, bo'yingiz ham o'sib, aqlingiz oshdi. Onalarin gizning chaqqon dastyoriga, oilaning chin ustuniga aylana boshladingiz. Shunday ekan, o'qish va turli mashg'ulotlarga vaqtida qatnab, onangiz quchog'iga ham kuttirmay vaqtida qayting va aytning: – Onajon, men sizni yaxshi ko'raman, doim sizni o'ylab yuraman. Siz mana shunday yosh va bizlarga bosh bo'lib turishingiz uchun o'z hissamni qo'shaman.

Sizning bu boradagi hissangiz: yana takrorlayman, onalarga tinchlik va xotirjamlik yaratishingizdir. Ustozlardan olgan olqishingiz, oiladagi mehribonchililingizdir.

**Yangi yil – XOTIRJAMLIK,
TINCH-TOTUVLIK yili bo'lsin!**



Ha, kimdir mitti o'yinchoq mashinalarni yig'sa, ayrim bolalar markalarni to'plashadi. Chunki shunday kichkinagina rangli qog'ozda tarixdan so'zlovchi buyuk haqiqatlar mujassam bo'ladi-da. Ko'plab albomlarni to'ldirib qo'ygan bolajonlar O'zbekistonda ishlab chiqarilgan markalarni alohida kitobcha shakliga ham keltirib ulgurishdi.

Kuni kecha marka yig'uvchilarni quvontiradigan yana bir voqeа bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi diplomatik aloqlar o'rnatilganligiga 15 yil munosabati bilan Toshkent shahridagi asosiy pochtamt binosida markaning taqdimot marosimi bo'lib o'tdi. Taqdimotda O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi bosh direktori o'rinnbosari Asadjon Xo'jayev, Xitoy Respublikasining O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Yuuy Xungzyun, elchixonaning birinchi kotiblari Shi Tyanzya, Chen Vivoy, O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligining bo'lim

boshlig'i Shukur Sobitov, Nuriddin Ubaydulayev, O'zbekiston pochta Ochiq aksiyadorlik jamiyatini bosh direktori Rustam Qosimov, O'zbekiston markasi filiali direktori Rahmonberdi Zikirovlar ishtirok etishdi. So'zga chiqqanlar Xitoy bilan O'zbekiston o'rtasidagi diplomatik aloqlarning yana-da mustahkamlanishi haqida gapirdilar. Ushbu pochta markasida O'zbekiston Respublikasining go'zal va qadimiy shaharlaridan biri Samarqanddagi Sherdor madrasasi va Xitoyning Buyuk devori lavhalari ikki Respublikaning bayroqlari bilan uyg'unlikda aks ettirilgan bo'lib, bezakchi U.Yusupaliyev g'oyasi bilan yaratildi. Eng quvonarlisi, Xitoy Respublikasining echixonova vakillari ushbu pochta markalardan dastadastalab xarid qilishdi. Ular ham O'zbekistonda ishlab chiqariladigan pochta markalariga ishqiboz ko'rindi.

Muharrama PIRMATOVA.

Sergeli tumanidagi 564-soni maktabgacha ta'lif muassasasi jazzi bolajonlarning sevimli maskaniga aylanib qolgan. U yerda murg'ak qalb sohiblari turli sport mashg'ulotlari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bilan ham mutazam shug'ullanib borishadi. Tarbiya berishdek murakkab san'atni chuqur egallab olgan tarbiyachi-pedagoglar bolajonlarga «Ta'lif to'g'risida»gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Davlat ta'lif standartlari va albatta «Uchinchi ming yil-

MARKALARNI YIG' ASIZMI?



«Qadamba-qadam dasturi»ning o'rni alohida bo'lmoqda. Xususan, ular tafakkurlashlari har xil bo'lgan murg'ak qalb egalarini guruhi-guruhi qaratib, yakka tarzda shug'ullanib kelishadi. Natijada bolalar muassasa dasturida belgilangan bilimlarni to'la-to'kis o'rganib olishmoqda. Shularning hisobiga aytaylik, 266-maktabning birinchi sinfiga qabul qilingan bolalarning 90 foizi o'zlashtirish borasida «yaxshi» va «a'lo» darajada deb topildi.

Albatta bolaning jismi sog'lom bo'l-

BOLAJONLAR

gandan keyingina u bilim olishga hafsala qiladi. Shuning uchun ham sog'lomlashtirish va chiniqtirish muassasa oldidagi muhim vazifalardan biri sanaladi. Misol uchun, o'tgan o'quv yili davomida bolalarda buqoq kasalining oldini olish maqsadida «Anstrumin» dorisi doimiy berib borildi. Oyog'i yassi va umurtqa pog'onasida nuqsoni bor bolalar uchun maxsus apparat sotib olingan. Endilikda shu va boshqa tibbiy asbob-uskunalar bolalar sog'lig'ini tiklashda ko'mak berib kelyapti.

Xullas, bag'ri ona bag'ridek keng ushbu maskan bolajonlarning ilk savod beshigiga aylanib qolgan. Agarda biror sabab tufayli bir kun bog'chaga borolmay qolgan bolakay tongni bog'cha sog'inchi bilan kutib oladi. Bu o'sha maskan pahlavonlarining fikri.

Salimjon INOMZODA.
Dilmurod SODIQOV surat lavhalari.



likning bolasi» davlat dasturi asosida ta'lif tarbiya berib kelishmoqda.

O'tgan o'quv yilida ushbu Maktabgacha ta'lif muassasida 125 nafar bola savodini chiqarib, katta hayot ostonasiga yo'l olishdi. To'g'ri, ularga «Alifbe» saboqlarini hijjalab o'rgatish, oqni qoradan ajratish me-yoriga yetkazish tarbiyachilarga oson kechmadi. Chunki ularning 23 nafari ilk yosh guruhda, 63 nafari bog'cha guruhida, shuningdek, 37 nafari esa nutqida kamchiligi bor bolalar edi. Har biri bilan shaxsan mashg'ulot olib borish, ichki his va mayllarini to'laqonli yuzaga chiqarish tarbiyachilarining yelkasiga yana-da kattaroq mas'uliyat yukladi. Qolaversa, tuman Xalq ta'lifi bo'limi qoshidagi metodika markazi bilan hamkorlik aloqlarining mustahkamlanishiga ham olib keldi. G.Karimova, D.Mirzayeva, S.Azizova kabi malakali tarbiyachi eng so'nggi dars ishlanmalarini, elektron darsliklarni puxta o'rganib, muassasa hayotiga joriy etib kelishmoqda.

Ma'lumki, bola tarbiyasi, ya'nii kelajakka daxldor bo'lgan oliyjanob yumush bilan shug'ullanish kishidan yuksak bilim va tajriba talab etadi. Bundan tashqari, bolalarning ko'ngliga yo'l topa bilish iqtidori, ularning hissiyotlarini to'g'ri yo'lga boshqara olish tarbiyadan birinchi talab etiladigan xislat hisoblanadi. Masalan, ana shunday tarbiyachi-pedagoglar - mohir rasmchi qiz Latofatni, taekvandochi Jasurni va raqqosa qiz Feruzaning noyob iste'dodlarini kashf qilib olishgan. Aytil o'tish joizki, bu tadbirlarni amalga oshirishda



HAKAM - QORBODO VA QORQIZ

Toshkent viloyati, Zangiota tumani sportchi bolajonlari uchun yilning so'nggi musobaqasi unutilmas voqeaga aylandi. Ular shu kuni Qorbobo va Qorqiz hakamlik qilgan musobaqada qatnashdilar.

Hoynahoy, bu qanday musobaqa ekan, deya qiziqayotgan bo'lsangiz kerak-a?

Bu yurtimizda ommalashib ulgurgan, karatening kumite turi bo'yicha o'tkazilgan sport bellashuvidir. Ushbu bellashuv Zangiota tumanidagi Xalq ta'lifi bo'limiga qarashli Bolalar va o'smirlar sport maktabida Usmon aka Usmonov xotirasiga bag'ishlab o'tkazildi. Yangi yil ostona hatlab turgan mahalda o'tkazilgan bu turnirda juda ko'p mehmonlar to'planishdi. Ularning ko'pi sportchi bolajonlarning ota-onalari edi. Shu kuni yana bir esda qolarli sana bo'ldi. Musobaqada mutlaq g'olib bo'lgan karatechilar viloyat terma jamoasi safiga qabul qilindilar. Terma jamoа a'zosi bo'lish bu xalqaro maydonlarda bellashish demakdir. Biz «Kamolot»chilar ham sportsevar bolajonlarimizga yangi yilning har bir kuni omad keltirsin, deya tilak bildirib qolamiz.

Mirzohid KOMILOV,
Toshkent viloyati, «Kamolot» YOIH sport va harbiy vatanparvarlik bo'lim mudiri.

JURNALIST BO'LMOQCHIMAN

Bizning qishlog'imiz Vatan uchun jang qilgan Ubay ota Musayev nomi bilan ataladi. Bu yil maktabimiz qayta ta'mirdan chiqdi. Keng, yorug'sinf xonalarida ta'lif olmoqdamiz. Men, ayniqla, adabiyot va tarix fanlariga qiziqaman. Ustozlarimdan o'tmishdagи turli voqeа va hodisalar, ertag-u afsonalarni eshitishni yoqtiraman. Qo'limdan kitobni sira qo'yamyan. Kelajakda bilimli, salohiyatlар bo'lishimiz uchun biz yoshlarga barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan. Ayniqla, chet ellarda o'qib, bilim va tajribalarini oshirib kelayotgan yoshlar haqida eshitsam, to'qinlanib ketaman. Ularga o'xshab ilm cho'qqilarini birmabir egallashga harakat qilaman.

Kelajakda jurnalist bo'lishni orzu qilaman. Buning uchun ba'zi fanlarni, shuningdek, chet tillarini chuqur bilishimga to'g'ri keladi. Men albatta bu niyatimga erishishga harakat qilaman.

Muxlisa HAKIMOVA,
Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi 3-umumta'lif maktabining 5-sinf o'quvchisi.

QISHLOQ QIZI DEMANG

Men Ma'murobod qishlog'ida tug'ilib o'sayotganimdan ba'zi qizlardek hech uyalmayman. Odamzod uch narsani tanlamaydi – ota-onani, millatni, vatanni. Shunday ekan, mening vatanim mana shu qishlog'im. Odamlarimiz saxiy, mehnatsevar, tabiatimiz chiroyli, suvimiz totli. Saranjom-sarishtali hovlilar odam ko'zini quvnatadi. Biz qizlar tomorqa ishlari, mol-holga qarash, non yopib, kir yuvish kabi uy yumushlaridan hech nolimaymiz. Chunki hech kim mehnatdan o'lmagan. Aksineha, shaharlik tengdoshlarimizdan orqada qolmaslik uchun bichish-tikishni, salat, ovqat va pishiriqlar pishirishni, biser bilan ko'yaklarni bezashni o'rganyapmiz. Yana o'qishlarimizni a'lo baholarga tugatib, oliyogohda tahsil olishni niyat qilamiz. Men ham ulg'aysam, o'qib, diplom olib qishlog'imga kelib ishlahmoqchiman.

Mehrinisho ERGASHEVA,
Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumanidagi 10-o'rta maktabning 7-sinf o'quvchisi.

Bolalar, yaqinda «Zangori ekran» orqali qo'li yo'q bola rasm chizib, tanlovdagi g'olib chiqqanini ko'rsatgandi. Siz ham ko'rib hayron qolgandirsiz? Ba'zan qo'l-oyog'imiz butun bo'la turib, shukur qilmaydigan bolalar ham bor. Har biringizni ota-



onangiz to'rt muchangiz sog'bo'lib voyaga yetishingizni orzu qilishadi. Sizlarning har tomonlama barkamol o'sishingiz uchun hukumatimiz tomonidan katta g'amxo'rliklar qilinmoqda. Zamonaviy bog'cha va maktablar, kasb-hunar kollejlari, purviqor sport inshotlarida tengdoshlarining bilim olyapti, jismonan chiniqyapti, ertangi kunning munosib vorisi bo'lib yetishyapti.

Lekin hamisha ham ota-onalar orzusini amalga oshavermaydi. Kimdir baxtsiz tasodif tufayli, kimdir nasliy xastalik tufayli nogiron bo'lib qoladi. Afsuski, yonginamizda nogiron bolalarning ham yashayotganini, ularning ham barchadek baxtli yashashga haqqi borligini ba'zan unutib qo'yamiz. Har biringiz o'quvchi, olim, shifokor bo'lishni orzu qilasiz. Ammo, u afgor oyoqlar-chi?

Ularning imkoniyati cheklangan nogiron bolalar oilalarida ta'limgardiyaga ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan muammolarni ko'pligini va ularni yolg'iz o'zlari bartaraf etish mushkul ekanligini his etgan kishilar xayrli ishga qo'l urib, 2004-yilda Termiz shahrida nogiron bolalar o'quv markazini ochishdi. «Imkon» markazi Termiz shahar hokimligi viloyat mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish boshqarmasi va nogiron ayollar va bolalar ma'naviyat va ma'rifat markazi bo'lib, nogiron bolalarga ta'limgardiyaga ijtimoiy himoyalash maqsadida tashkil etildi.

Hozir o'quv dargohida kar-soqov, ko'zi ojiz, tayanch a'zolarida nuqsoni bo'lgan hamda rivojlantirishda ortda qolgan 90 dan ziyod bolalarga ta'limgardiyaga ijtimoiy himoyalash maqsadida tashkil etildi.

Markazda fidoyi pedagog Sohiba Ziyoviddinova boshchiligidagi logoped, surdopedagog, nevropotolog, psixiatr kabi ko'plab mutaxassislar ishlayapti. Ruhshunos-maslahatchi xonasi bor.

Ma'lumki, keyingi yillarda respublikamizda inklyuziv ta'limgardiyaga ijtimoiy himoyalash maqsadida tashkil etildi. Maqsad – imkoniyati

cheklangan bolalarni o'z tengdoshlaridan kamsitmay, ular bilan teng huquqqa ega ekanini isbotlashdir. Tengqurlarida bir-birini tushunish, mehr uyg'otish, uning ongiga «do'sting ham senga o'xshash bola, sen sog'lomsan, uning esa imkoniyati cheklangan, lekin u ham seningdek bilim olishga haqli», degan tushunchalar singdiriladi. Ularga jamiyatda o'z o'rnini topib olishga ko'maklashish, o'zini boqishga tayyorlash, bolaga o'zligini his etishga yordamlashish niyatidamiz.

Markazda ota-onalar uchun «Madad» guruhi ham tashkil etilgan. Psixolog, nevropotolog, psixiatrlar birgalikda ishlab, nogiron bolalar oilasi bilan yaqin munosabatda bo'lib, ruhiy maslahatlar berishadi, ma'ruzalar o'qiladi.

daliyevlarni ana shunday sabr-chidamli, qalbi daryo o'qituvchilar deyish mumkin.

Ahil jamoa nogiron bolalarni reabilitatsiya va integratsiya jarayoniga tortish hamda o'quv markazining tajriba-sini respublikada omma-lahtirishga astoydil harakat qilishyapti. Mar-

kazda tasviriy san'at, matoda naqsh solish, yumshoq o'yinchoqlar tikish, zardo'zlik kasblari o'rgatilayapti. Qizlar yostiq jildi, choynakpo'shtalarini buyurtma uchun tikishayotganidan xursandlar.

— Moslashtirilgan binoga joylashgan o'quv markazini ozgina kengaytirib, qo'shimcha bino qurish jamiyatimizning bir zarrasi bo'lgan shu begunoh bolalarga o'zining kerakliliginini his etish uchun imkon yaratish, kulolchilik, etikdo'zlikni o'rgatish niyatlarim bor, — deydi «Imkon» o'quv markazi rahbari Sohiba Ziyoviddinova.

— Markaz binosi o'tgan yili davlat tomonidan to'liq ta'mirlandi. Viloyat Qizil yarim oy jamiyatni, xususiy tadbirkorlar moddiy jihatdan yordam qilishyapti. «Assom» xususiy firmasi kattagina mablag' o'tkazdi, unga bolalar uchun eshitish apparatlari olmoqchimiz. O'quv darsliklari borasida Respublika o'quv uslubiy markazi yordam qilishiga umid qilaman.

Respublika Oftalmologiya klinikasi mutaxassislarini tashrif buyurib, bolalarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishdi. Viloyat maktabalarida nodaylat notijorat tashkilotlari va Bolalar jamg'armasi hamkorligida «Mehr» darslarini o'tayapmiz, samarasini yaxshi bo'layapti...

Nasiba! Oyoqlarim yurmaydi deb sira o'kinma. Osmonga qarab harakatsiz yotganlar ham bor dunyoda. Ajab emas, iltijolaring bois shifo topsang. Seni umid hech qachon tark etmasin. Sen oilangga, do'stlaringga, ota-onangga keraksan, juda keraksan, qizgina...

Zamira TO'LAGANOVA.

Bola tortinmasligi, o'z nuqsonidan uyalmasligi uchun darslar erkin tarzda tashkil etilgan.

Masalan, Nilufar Xudoyberdiyeva 10 yoshda, kelganida gapirmasdi, zaif eshitardi. Mutaxassislar yordami bilan bir yil ichida eshitib, gapiradigan bo'ldi.

U o'ziga o'xshagan bolalar muhitida tortinmaydi, erkin harakat qiladi. 9 yoshli Jalol kelganda yurmasdi, bu yil yura boshladidi. Aqli joyida, xotirasni yaxshi. Bunday bolalarni jamiyatga qaytarish markaz fidoyilarini zimmasida.




«Imkon» markazi eksperimental muassasa hisoblanib, mana shunday tarzda insonning imkoniyatlari ko'p ekanini isbotlamoqda.

Bu yerda imkoniyati cheklangan nogiron bolalarning qayg'u musibatlari va qalb iztiroblariga loqayd qarab tura olmaydigan kishilargina ishlay oladi. Zulfiya Shoyimardonova, Muhayyo Choriyeva, Xolbu Safarova, Dilorom Qodirova, Raisa Pavlovna, Sabohat Shamayeva, Yulduz G'ulomova, Oygul Qilichova, Mastura Halilova, Normat Boymurodov, Ochil Mama-

...Ayajon, meni dunyo-ga keltirib nima qilardingiz? Yurolmaydigan qiyshiq oyoqlarim bilan men kimga kerakman endi? O'rtoqlarim kabi chopgim, o'ynagim, raqsga tushgim keladi. Nega bunday baxtsiz qilib tug'dingiz, ayajon?»

(Nasibaning dil so'zlaridan)

IMKON "NING IMKONIYATI"



BIR JAHON BOLALARMIZ



Po'lat MO'MIN
PAPKA BILAN
SIYONDON

Siyondon bilan papka, Tushibdi hasrat – gapga. Gaplar cho'zilmish ancha, So'zlashibdi bilgancha. Papka debdi: – Siyondon, Bu ishing juda yomon. Atrof to'ldi siyoga, Arzga boray qayooqa. Bunaqangi bo'Ima bez, Axir chiqib ketgin tez. Shunda papka ichidan, Siyondon debdi chindan: – Hurmatli do'stim, Papka, Menden qilmagin o'pka. Uyi tomon ketganda, Koptok qilib tegpanda. To'kilaman har yonga, Ayb qo'yma sen menga. Egamiz o'zi nodon, Bizni arsaydi yomon. Nima desa egamiz, Unga bo'yin egamiz. Egamdan ko'p hasratim, Taqdirlamas xizmatim. Ichim to'la non uvoq, Shu ham bo'ldimi siyoh? Papka debdi: – Siyondon, Egamiz bo'lsin sarson. Papkadan kitob, daftar: – Ma'qul, – debdi bu gaplar. Papka bir kuni taqqa, Qochmish noma'lum yoqqa... O'sha papka egasi, Qurabsizki, ertasi, Darsga kepti bepapka, Rosa qolibdi gapga.

BIZNING PO'LAT BOBOMIZ

(Po'lat Mo'min xotirasiga)

Nasihatlar qilardingiz, Boshimizni silardingiz, Kamolimiz tilardingiz, Po'lat bobo, Po'lat bobo. She'ringizda turfa ma'no, O'qiymiz bo'lib dono, Kundaliklar g'ij-g'ij a'lo, Po'lat bobo, Po'lat bobo. Tizilamiz bin saf bo'lib, Do'stligimiz g'olib bilib, So'zingizga amal qilib, Po'lat bobo, Po'lat bobo. Musaffodir osmonimiz, Hushyor turar posbonimiz, Bizga hamroh kitobimiz, Po'lat bobo, Po'lat bobo.

Jamila ERDONOVA.

Hamisha uyg'oq xotira



zishdi. O'zbekiston Yozuvchilar masida maslahatchi bo'lib, 53-yillar davomida esa va shahrida M.Gorkiyagi Adabiyot instituting Olyi kursida o'z malakasini qaytdi.

ing birinchishe'riy to'plami 1949-yilda «Sayrang qushlar» nomi bilan nashr etildi. Shundan so'ng, birin-ketin «Tong kuyulari» (1951), «Bo'l tayyor» (1953), «Tish cho'tka, poroshok va atir so-vun» haqida ertak (1954), «Do'stlarimga» (rus tilida), «Oftob chiqidi olamga» (1956), «Hunardan unar» (1958), «To 'g 'ri o'sgan – gul b o ' l a r » (1960), «Gaz polvon ertak aytar» (1961), «R a h m a t g a rahmat» (1969),

«Aql qayerda bo'ladi» (1962), «Endi adashmaydi» (1964), «Eson va omon», «Odob va oftob», «Oltmish olti qo'l» (1977), «Barcha do'star bir bo'lsa» (1979), «Ustozlar izidan» to'plamlarini nashrdan chiqardi.

Po'lat Mo'min avval poxtaxtdagi Pedagogika bilim yurtida, so'ng Nizomiy nomli Toshkent Davlat Pedagogika instituti filologiya bo'limida tahsil oldi. U ish faoliyatini maktabda o'qituvchilikdan boshlagan bo'lib, keyinchalik bolalar gazetasida «Adabiyot va san'at» bo'limining rahbari lavozimiga ishga tushdi. Shoirning odob-axloq mavzuida yozilgan asarlарining mazmuni hozirgi zamон uchun ham o'z faoliyoti yo'qotmagani, tashlanib, uni «O'zbekiston» Davlat nashriyotiga bo'lim boshligi qilib ishga tashlanib, uni «O'zbekiston» Davlat

ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim.

Shoirning «Oftob yaxshimi, odob yaxshi?..» she'rida oftob bilan odob haqidagi qiyosiy rejada fikr yuritish orqali kichik yoshdagi bolalarga oftobning ham, odobning ham o'mni, roli va ahmiyatini ravon misralarda ifodalab beradi. Shoir avvalo:

«Oftob yaxshimi, odob yaxshi?..» degan savloni o'rtaq qo'yib, unga o'zi javob beradi. Javob albatta kichkintoylar uchun ham qo'shiqlar yaratagan. Shoir aytganlar: – Mening kitobxonlarim ulg'ayib, sevgi yoshiga yetganda ham ular bilan bo'lgim keladi.

Oftob berar nur,
Odob-chi, huzur,
Lolalar uchun,
Oftob yaxshidir.
Bolalar uchun,
Odob yaxshidir.

Shoirning so'ngi yillarda ijodi o'smirlar uchun kasb-hunar, mehnat mavzularida yaratildi. Har bir asari bolalarni mehnat qilishga, kasb-hunar o'rganishga, chorlashga bag'ishlangan bo'lib, «Er yigitga yetmish hunar oz» degan maqolni o'smirlar ongiga o'z uslubi orqali singdirishga harakat qilgan. She'rleri orasida kasb-hunarlarning turlari haqida maroqli fikrlar bildirilgan.

Traktorchi fikri tiyrap,
Ko'ngliga ko'p ahd-u tilak.
Mashinist boshlar so'zin,
Maqtab o'z teplovozin.
Qalbida zavq-u orom,
Gapiradi agronom.

Masalan, shoir agronomlik haqida fikr yuritganda, agronoming kichik ko'chat va nihollarni parvarishlab, hosisiga kirkuncha qilingan mehnat jarayonini shunday qiziqarli hikoya qiladiki, bolada beixtiyor shu kasbga qiziqish uyg'anadi. Shoir agronomni «o'simlikning shifokori» deb ta'riflaydi.

Shoir Po'lat Mo'min badiiy ijod sirlarini kashf etishga yordam beruvchi

vositalardan biri sifatida tarjimanini tanladi. A.S. Pushkin,

Mamin Sibiryak, V.Mayakovskiy, S.Marshak, S.Mixalkov, A.Barto, N.Nosov kabi yozuvchilarning ayrim asarlari o'zbek tiliga tarjima qildi.

Po'lat Mo'min drama-turiyaga sohasida ham ancha sermehsul mehnat qilgan

adiblarimizdandir. Dramaturgning «Qovoqvoy bilan Chanoqvoy», «Sugatoy-kofnetoy», «Oq fil yo'qoldi», «Bahodirning bahodirligi» kabi sahna asarlari ko'p yillardan buyon yosh tomoshabinlar e'tiborini qozonib kelmoqda.

Shoir ijodi xalq qalbida munosib o'rinni olgan bo'lib, davlatimiz shoirini G'afur G'ulom nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlagan.

tuzalganini «Salimon endi polvon» degan yangi she'rda ko'rsatadi. Uning har bir yangi asariga muxlislari ko'plab xat yozardilar.

«Parfining harfi» she'ringizni darsda ishlab chiqdik. O'quvchilar uni o'qib xur-sand bo'lishdi, ham kulishdi...

... Ko'pchilik bolalar endi qoidalari va chiroyligi yozishga harakat qilishyapti. «Ha» degan tuyaga madordek, she'ringiz bizga katta yordam beradi. Quvonganimizdan sizga xat yozdik.

Po'lat Mo'minning kitobxonga manzur bo'ladigan ana shunday she'rleri ko'pdir.

Shoirning so'ngi yillarda ijodi o'smirlar uchun kasb-hunar, mehnat mavzularida yaratildi. Har bir asari bolalarni mehnat qilishga, kasb-hunar o'rganishga, chorlashga bag'ishlangan bo'lib, «Er yigitga yetmish hunar oz» degan maqolni o'smirlar ongiga o'z uslubi orqali singdirishga harakat qilgan. She'rleri orasida kasb-hunarlarning turlari haqida maroqli fikrlar bildirilgan.

Fil kelar, fil –
Apil-taplil.
Mingan filbon,
Qarar har yon.
Bolalarga
Deydi goching.
Qani tezda,
Yo'lni oching.
Bahaybat fil,
Qarar zimdan,
Qanday sovg'a,
Tegar kimdan.
O'z yo'lida,
Etar davom,
O'kinchiga
Berar salom.

CHILDIRMA
O'zi oyday,
Ziraklari shildir-shildir,
Chalqaningda,
Ohanglari xilma-xil,
Topsang darrov bildirma,
Bildirma, bildirma,
Gumbalagumi-gumbalagum,
Gumbalagum,
Uning nomi – childirma!

QO'ZICHQOQ
Qo'yim tug'di qo'zichoq,
Taqib qo'ydim ko'zmunchoq,
Junlari-chi, jingalak,
Hech tinchimas, jonsarak.

Onasiga surkalar,
Barcha uni erkalar.
Yaxshi boqsam cho'zib bo'y,
Yana yilga bo'lar qo'y.
Qo'zim bo'lar qo'y.

SOAT
Soat ishga shaylanadi,
Qo'tin yozib aylanadi.
Ogoh qilib odamlarni,
Ko'rsatadi raqamlarni.
Kech kiradi, tong otadi,
Uxlab golsang uyg'otadi.
Senunga ei itoat,
Yordamchingdir bu soat.

SHAMOL
Shamol izg'ir har tomon,
U ko'rinnas qahramon.
Daraxtilarni egadi,
Egadi, egadi.
Tegmaganga tegadi,
Tegadi, tegadi.
Bulutni ham haydaydi,
Ham yoqimtoy, ham daydi.
Kun qizisa bemolal,
Bemolal, bemolal.
Orom beradi shamol,
Orom beradi shamol.


MEN KITOB DAN NUR TOPDIM

Kutubxonamizga kirdim-u, qaysi kitobni olib o'qisam ekan, deya biroz ikkilanib turdim. Javonlarda taxlanib turgan kitoblar orasidan sevimli shoirimiz, dramaturg Po'lat Mo'minning «Odob va oftob» nomli she'riy to'plamini tanladim. Kitobning yuzi biroz uniqsan bo'lsa-da, (u ham qo'ima-qo'l bo'lib o'qilganidan darak) sahifasidagi har bir she'r men uchun keng bilan yigilik, kashfiyot edi, go'yo. Ularni o'qib, nega zerikmadim-a, deya o'zinga savol ham o'qib berganimda, ular yana o'qib bering, deb yalinishdi. Hafta bog'chaga boradigan 5 yoshli Shahlo ismli singilcham menga ham she'rlardan o'rnatish, ertaga bog'cha opamaq atiyib beraman, deb xarxasha qila boshladи. Buni qarangki, shuncha vaqtan buyon bunday nodir, rang-barang she'rlarga boy kitobini o'qimay yurganimga afsus ham qildim. Siz aziz ukalarim va singilchonimga esa fursatni boy bermay albatta Po'lat Mo'minning barcha kitoblarini topib o'qing, deyman.

Muxlisa MIRZAYEVA,
O'zbekiston Jahon tillari universitetining
Xalqaro jurnalistika bo'limi I- bosqich talabasi.

Po'lat Mo'min «Tong yuldizi»ning qadrdoni edi. Gazetamizning har bir sonini qiziqib kuzatgan, so'zlar ustida to'xtalib, «ega-kesimi»ni tuzatgan ustozimiz tahririyatimizga tez-tez kelib turardi. Kamtarlik, donolik, ishga mas'uliyat, kasbga sadoqat ardoqli shoirda mujassam, shu sababdan ham atrofida hamisha shogird-u o'quvchilarini jam edi...

Ko'rinaldi, she'rda badiiy tasvir vositalardan tortib, she'riy texnikagacha, til va qo'fiyalargacha, bar'iasi kichkintoylarning o'ziga xos fikrlashga, dunyoqarashiga mos holda harakatga hazil qo'shiq deydi. Bu qo'shiq paydo bo'lganda, Salimon ismli bolalarni shoirga at yozib, ularning bunaqa emasliklarini isbotlamoqchi bo'lganlari matlam. Shoir Salimonning tanqiddan keyin



Tengdoshlarining ijodi

TOG`AMGA HAVAS QILDIM

Mening tog`alarim ko`p. Ammo ular ichida kenja tog`am juda azamat. Qishloqdagagi to`ylarda o`tkaziladigan kurashlarda doim g`olib chiqadilar.

Bahrom tog`am maktabda ham chaqiruvgacha yoshlarni tarbiyalash fanidan «a`lo»ga o`qirdilar. Lekin negadir institutga o`qishga kirkach, harbiy xizmatga borishni orqaga suraverdilar. Balki bunga tortinchoq bo`lganlari sababdir. Ammo bir kuni televizordan «Sardor» serialini, undagi yigitlarning hayotini ko`rgan Bahrom tog`am o`qishni ham tashlab, harbiy xizmatga jo`nab ketdilar. Ular xizmat paytlarida

tez-tez xat yozib turdilar. Buvam bilan buvum Farg`onaga borib tog`amni ko`rib kelishdi. Ular shunday xursand edi-ki.

-E, tog`angni komandir rosa maqtadi. Shunday sog`lom, aqli, eng muhim, jasoratli o`g`ilni tarbiyalaganimiz uchun bizga rahmat ham aytishdi. Chunki u rotadagina emas, harbiy qismida ham intizomli, shijoati bilan taniqli ekan.

Buvamning hikoyasidan keyin men tog`amning qaytishini intazorlik bilan kutdim. Nihoyat, bu yil kech kuzda tog`am harbiy xizmatdan qaytdilar. To`g`risi, tog`amni tanimadim. Yo`q, qomati, ko`rinishidan emas, ularning gap-so`zlaridan, fikrlashlaridan. Chunki tog`am dadil-dadil gapiradigan, fikrini qisqagina qilib tushuntira oladigan bo`libdilar. Eng muhammi, o`zlariga ishonchlari ortibdi. Tog`amga judayam havasim keldi. Men serjant tog`amning harbiy liboslarini kiyib ko`rarkanman, kelajakda vatan sarhadlarini mardona qo`riqlovchi zabit bo`lishni niyat qildim.

**Murod HAMROYEV,
Qorako`l tumanidagi 7-maktab.**

Men qishni yaxshi ko`raman. Negaki, bu paytda ta`tilga chiqamiz. Mazza qilib dam olamiz. «Qoraqosh» tepadan bolalar bilan qiyqirishib, mazza qilib pastga sirpanamiz. Yaxmalak uchamiz, chanalarda ukalarimizni sayr yasashga bellashamiz, qorbo`-qishning o`ziga xos qancha Ha, ana shu biroq meni juda shundaki, biz mahallada shundoq serqatnov ko`cha o`rtoqlarim shundan foy-muzlagan yo`lda borayotgan uchishyapti. To`g`ri, ularga ehtiyyot bo`l, deb solishmaydi, oqibati...

Oqibati, ulardan biri, jarohat oldi. Hech mashinani kutilmaganda kutmagan Dilshodning ketib, katta yo`lga boshi Karim aka ko`rib Dilshod shifoxonada -Yaxshiyam orqa-xudo bir asradi, - dedi Dilshodning oyisi.

-Abdulhamid, Rasul, iltimos, sirayam mashinaga osilmang, xo`pmi, - dedi Dilshod biz bilan yotgan joyida haylasharkan.

**A. MAHMUDOV,
Qibray tumanidagi 36-maktab.**

**PUSHAYMON**

Hozir qish. Bu yil qor rosa yog`yapti. Sovuq ham zo`r bo`lyapti. Ko`chalar muzdan yap-yaltirab yotibdi. Har gal ko`chaga chiqayotganimizda, buvumiz, oyimiz: «ko`zingga qarab yur, sirpanchiq etikchangni kiyma», deb tayinlashadi.

Lekin... buvum o`qituvchilar. O`qituvchilarni bilasiz, ta`tilda ham ishlashadi. Makkabga esa mashina yo`lidan kesib o`tiladi.

Tunov kuni buvijonim shoshib ishga kelayotganlarida oyoqlari muzda toyib, o`ng oyoqlari sinibdi. Hozir uni gipslab qo`yishdi. Shu sovuqda, muzday gipsda o`tirish keksa odamga oson emas. «Buvijon, nega qor yog`adi-ya, hammayoqni muzlatib», dedim buvumning gipsli oyoqlarini silab.

- Bolajonim, qish bo`lishi, qor yog`ishi, hamma narsa o`z vaqtida bo`lgani yaxshi. Bu

yerda ayb qishda emas, rahbarlarda. Agar serqatnov, yaxlagan yo`llarga o`z vaqtida qum, tuz sepib turilsa, muz erib ketadi, harakat xavfsizligi ta`minlanadi, - dedilar buvum, keyin qo`shib qo`ydilar:

- Balki qum qimmatdir!

- Iye, buvijon, odamni sog`ligi qimmatmi, qummi? - dedim jahlim chiqib. - Gap e`tiborda. Yo`l qurilish rahbarlarimi, obodonchilik boshqarmasimi, o`z vazifasini bajarsa, odamlarni, ularning sog`lig`ini o`ylashsa, shunaqa ko`ngilsizlik bo`lmaydi.

- Voy o`zimning aqlligim, - buvum meni avaylabgina bag`riga bosdi.

**Muborak SODIQOVA,
Qibray tumanidagi 50-maktab
o`quvchisi.**

Odatda Yangi yilni hamma yaxshi niyatlar bilan kutib oladi. Birinchi navbatda yil bo`yi sog`lom bo`lishni niyat qiladi. Niyat amalga oshishi uchun esa harakat qilish kerak. Men bu borada maqtana olaman. Biz sog`lom bo`lish uchun tayyorgarlikni bayram dasturxonidan boshladik.

BIZ SOG`LOM BO`LAMIZ

Qanday qilib, deysizmi?

Farzandlarini sog`lom, bardam, polvon bo`lishini chin yurakdan tilagan onajonim dasturxonga tortilgan patir, chuchvara, somsa-yu shirinliklarni, hatto noringacha boyitilgan undan pishirdilar. Qorboboning qopidagi sovg`alar ham tanamizdagagi temir va yod moddalarni ko`paytiruvchi shirinliklar ekan.

Yana-chi, biz boshqa bolalarga o`xshab sog`lig`imizga zarar keltiradigan har xil paqildoqlarni paqillatmadik. Yangi yil kirgandan keyin ottonamiz bilan birga nogiron qo`shnimizni ko`rgani chiqib, shirinlik va ertak kitoblar sovg`a qildik.

- Yangi yilni ezbilik bilan boshladik. Xudo xohlasa, 2007-yil juda-juda xayrli bo`ladi, - dedilar buvijonim.

**Rahmatulla SOBITOV,
Toshkentdagi 152-maktab o`quvchisi.**

**DIQQAT, MUZBAQA!**

Serquyosh O`zbekistonimizdagagi toshbaqalar miriqib qishki uyuguga ketgan paytda Kanadadagi toshbaqalar mazza qilib sirpanchiq uchib yurishadi.

Gap shundaki, qishda toshbaqa tanasidagi suyuqlikning yarmidan ko`pi muzlab qoladi.

XANDA

$$\begin{array}{r} 53 + 45 = \\ 16 - 23 = \\ 2 + 77 = \end{array}$$



O`qituvchi: - «Odam» so`zining ko`plik shakli nima bo`ladi?

O`quvchi: - Odamlar.


O`qituvchi: - To`g`ri, «bolalar»ning ko`pligichi?

O`quvchi: - Egizaklar!



Sahifani M.HAMDOVA tayyorladi.

Yaqinda Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumanidagi Qori Niyoziy nomli 25-umumiy o'rta maktabning 6-«A» sinf o'quvchilaridan maktub oldik. Ular «Mening bo'sh vaqtim» sahifasi uchun maqolalar yozib yuborishibdi. Tengdoshlarining bo'sh vaqtinini maktab qoshida tashkil etilgan «Ijod gulshani» til-adabiyot to'garagida o'tkazisharkan. To'garak rahbari Zulayho opa maqolalarini o'qib, rag'batlantirib turarkan. Siz ham tengdoshlarining yozganlarini o'qingda, bizga ta'til kunlarida nimalar bilan mashg'ul bo'layotganingiz haqida yozib yuboring.



NAFS

Hovlimiz to'ridagi terakda uya qurgan mayna kurnlardan bir kuni bola ochib chiqdi. Ularning soni uchta bo'lib, ikkitasi baquvvat, bittasi esa nimjonroq edi. Men ularni har kuni kuzata boshladim. Nimjon mayna bolasiga don bermoqchi ham bo'ldim. Lekin unga tiqilib qoladimi deb o'yadim. Ona mayna har kuni ularga ovqat olib kelib berardi. Mayna bolalari kundan-

kunga katta bo'la boshlashdi. Men ham ulardan har kuni xabar olib turardim. Bir kuni borib qarasam, nimjon mayna bolasi yerda o'lib yotardi. U o'zidan baquvvat mayna bolalaridan luqmasini ajrata olmasdan, nafs qurbaniga aylangan edi. Men unga achinib ketdim va bejon qushchani ko'mib qo'ydim.

Sayyodbek MAMATOV.

O'YINQAROQLIK OQIBATI

Bir kuni rosa yomg'ir yog'di. O'sha kuni oyim bilan dadamning ko'nglini oldim-da, darsimni tayyorlab bo'ldim, deya ko'chada rosa o'ynadim. Dars qilish esa xayolimga ham kelmasdi. Hatto maktabga ham borgim kelmay qoldi. O'yin rosa qiziganda, oyim:

-O'g'lim, maktabga boradigan payting bo'ldi, - deya chaqirib qoldilar.

Uyga kirib choymni ichdim-da, maktabga yo'l oldim. Dars jadvalini ko'zdan kechirayotib, matematika fani birinchi soatda turganiga ko'zim tushib, yuragim orqaga tortib ketdi. Familiyam ham jurnalndagi ro'yxatning boshida turadi. Buning ustiga matematika ustozimiz doim menden so'raydi. Boshqa kunlari bo'lganda-ku mayli-ya, ammo bugun umuman dars qilmaganman-ku...

Birinchi darsga qo'ng'iroq chalindi. Ustozimiz sinfda hammamizni kutib oldilar. Uyga vazifasini tekshirishga navbat kelganda, meni doskaga chaqirib qolsalar bo'ladimi?! U o'rtog'imga qarayman, bunisiga qarayman, hech kimdan sado chiqmaydi. Oxiri dars tayyorlamaganligimni tan oldim.

-Ha, tan olish ham bir matonatdir, - deya ustozim kundaligimga ham, jurnalga ham «ikki» baho qo'ydilar. Endi oyim bilan dadamdan eshitadiganimni eshitadigan bo'ldim.

Abbos KARIMOV.

IDISHIM XURSAND BO'LDI...

Bir kuni maktabdan kelsam, oyim menga tushlik tayyorlab, o'zilari qayoqqadir ketibdilar. Men tez-tez ovqatlandim-da, idishimni yuvilgan idishlarning

Mening bo'sh vaqtim

yoniga qo'yib, o'zim o'rtoqlarim bilan o'ynashga chiqib ketdim. Kech tushgach, uyga kirdim va to'g'ri oshxonaga yo'l oldim. Birdan ko'zim yuvilmagan idishimga tushdi. Xayolimda yuvilmagan idishim yuvilgan idishlar orasida izza bo'layotgandek tuyuldi. Darhol qo'limga sochiq olib, idishimni tozalab yuvib, yuvilgan idishlar safiga qo'ydim. U xuddi mendan mamnun holda kulib turgandek tuyuldi. Men shundan keyin har doim ovqatlanib bo'lgach, idishlarni yuvib qo'yadigan bo'ldim, bundan men ham xursand, idishim ham...

Murod OCHILOV.

XATOSINI TUSHUNGAN ZARIFA

Zarifa oilada yolg'iz farzand bo'lganligi uchunmi, judayam erkatoy qiz. Dadasi bilan oyisi ham uni doim «erka qizim» deya erkalab turishadi. Hatto mahalladagilar ham uni yangi ko'yaklari-yu qo'g'irchoq-



larini maqtab charchashmaydi. Hamma uni chiroyli, odobli qiz, deya taltaytirishadi. Uning qimmatbaho ko'yaklari sanab, sanog'idan adashib ketasiz. Kunlardan bir kuni u o'rtoqlariga yangi ko'yagini maqtanish uchun ketayotgandi. Yo'lda Halima xolani ko'rib qoldi va yonidan indamasdan o'tib ketdi. Buni ko'rgan Halima xola:

-Voy, buncha xunuk qiz ekan bu, odobni ham bilmaydi, - dedi.

Bu gapni eshitgan Zarifa juda xafa bo'ldi. Negadir bu safar o'rtoqlari ham yangi ko'yagini ko'nglidagidek maqtashmadi. Uyiga xafa bo'lib kirib kelgan Zarifani ko'rgan onasi:

-Ha, nima bo'ldi, nega qovog'ing soliq? - deb so'radi.

Shunda Zarifa bo'lgan voqeani aytil berdi.

-Halima xola to'g'ri aytibdilar, - dedi oyisi Zarifaga yuzlanarkan. -Sen chiroyli kiyinsang-da, odobing bo'lmasa, barchanining ko'ziga xunuk bo'lib ko'rinasan. Odamni kiyim emas, uning odobiyu tarbiyasi bezab turadi.

Bu gaplardan to'g'ri xulosa chiqargan Zarifa ertasi kuniyoq ko'chada duch kelgan keksa-yu yoshga salom bera boshladi.

Barno YO'L DOSHEVA.



Nargiza
ABDULLAYEVA.



Yangi yil hangomalari

Qorbobo qani?

Kechasi Qorboboni kuta-kuta Sanjar uylab qoldi. Ertalab o'rnidan turgan zahoti uyning to'ridagi bezatilgan archa yoniga bordi va katta paxmoq ayiqcha qo'yilganini ko'rdi-yu, uni mushtlay ketdi.

—Qorbobo qani? Sen uni yeb qo'ydingmi, ayiqpolvon?

QORQIZ

—Egnimdag'i ko'ylagimni Qorbobo keltirdi, - dedi qizaloq xolasiga maqtanib.

—Oyog'ingdag'i qizil etikchani-chi? —so'radi xolas'i.

—Uni ham.

—Qorqizning o'zginasi bo'lib qolibsani-ku, jiyancham, mabodo o'rmondan kelgan Qorqiz emasmisan? -hazillashdi xolas'i.

—Hozir oyimdan so'rab ko'raychi, - deb oshxonaga chopqillab ketdi qizaloq.

QOVOG'IDAN QOR YOG'DI

—Qachon qor yog'arkin? Qorni juda sog'indim. Qor yog'sa, mazza qilib chana uchardik, Qorbobo yasardik, - dedi Komil bog'chadan kelayotib do'stiga.

—Namuncha «qor-qor» deysan? Kechagina o'zing bog'cha opamizning qovog'idan qor yog'di deding-ku, - dedi Anvar.

ASFALTNING TISHI QURTLDADI

—Oyi, asfaltning ham tishini qurt yeydimi?-so'radi Nodir.

—Nima uchun so'rayapsan, o'g'lim? - dedi oyisi.

—Ko'chamizda chana uchayotgan edim, chanam o'nqir-cho'nqir joylariga tushib ketaverdi-da, ustida qor bo'lganligi uchun men uni ko'rmabman, - dedi Nodir.

*Salomat G'OYIBNAZAROVA,
shifokor.*

SEVIMLI MUALLIMIMIZNI QUTLAYMIZ

Biz o'quvchilar uchun sevimli muallimimizdan ham yaqin maslahatgo'y murabbiy va ustoz bo'lmasa kerak. Ularning har bir so'zi biz uchun nihoyatda qadrla, ulug' va ilhombaxshdir.

Shu kunlarda ana shunday mehrbon o'qituvchilarimizdan biri Anvar aka Rashidov tavallud kunining 60 yilligini nishonlamoqdalar. Biz sevimli muallimimizni qutlug' yoshi bilan chin ko'nglimizdan qizg'in muborakbod etib, ularga bahodirona sog'liq, uzoq umr va yana minglab yoshlarga ustozlik qilishlarini tilab qolamiz.

Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on shahridagi 4-umumta'lim maktabining bir guruh o'quvchilari.

Voqe'a

O'G'RIMI, TO'G'RI!?

Uyimizning ikki tomonida ham darvoza bor. Birinchi darvoza shaharga olib chiqadi. Ikkinci darvozamiz esa orqa mahallamizga o'rnatilgan.

Dam olish kuni edi. Oshxonada kechki taomni tayyorlash bilan band edim. Bir yumush bilan tashqariga chiqsam, hovlimizning o'rtasidan kimdir yugorganicha o'tib borayapti. Orqasidan uning kimligini tanidim. Shunda eshitsin deb, «Bu yerda odamlar yashaydi», dedim. U esa gaplarimni eshitmaganlikka oldi.

Birovning hovlisi o'rtasidan ruxsat so'ramay kesib o'tgan odamni biz o'g'ri deymizmi yoki to'g'ri?

Siz nima deysiz, aziz bolajonlar?

Xurshida YODGOROVA.



YAXSHI YILIM

Yangi yilim, yaxshi yil,
Barcha yillar naqshi yil.
Baxtli bolalik haqda,
Kuylaydigan baxshi yil.

Har uydakulsin quvondi,
Har uygakelsin omad.
Ona Vatan bag'rida,
Yashaylik sog'-salomat.

Yangi yilning bazonida,
Keling do'stlar, quvnaymiz.
Tinchlik qo'shig'in kuylab,
Birgalashib o'ynaymiz.

Biz baxtli bolalarmiz,
Bizga bayram yarashar.
Yangi yilning husniga,
Qarab ko'zlar qamashar.

Zahro BAXTIYOR qizi,
Yunusobod tumani 17-lingistik
maktabning 4-«B» sinfi o'quvchisi.



TOPISHMOQLAR

Sayohatchi yo'lda adashmas,
Unga hamroh bo'lganda ...

Devlarga opa-singil,
Mamont kabi ulkan ...

Tuzilishi qayiq misol,
Cho'p yog'ochdan yasalar ...

Rangi sovuq go'yo kesak,
Baliqsimon ...

Boshida qo'sh o'tkir muguz,
Qoramollar piri ...

*Hasan OTAQULOV,
Toshkent viloyati,
Bekobod tumani.*

Ona yulduzi bo'lib
**TONG
yulduzi**

BOSH MUHARRIR:

Umida

ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV

(O'zbekiston Xalq ta'limi vaziri),

Dilbar ALIMJONOVA

(«Sog'lim avlod uchun»

hukumatga qarashli bo'limgan

xalqaro xayriya jamg'armasi

ijrochi direktori),

Qahramon QURANBOYEV

(«Kamolot» YOIH markaziy

kengashi raisi o'rinnbosari),

Jabbor RAZZOQOV

(«O'zbekiston» NMIU bosh

muharrir o'rinnbosari),

Dilmurod RAHMATILLAYEV

(Andijon viloyati Xalq ta'limi

boshqarmasi boshlig'i),

Dilshoda DADAJONOVA

(Namangan viloyati Xalq

ta'limi boshqarmasi boshlig'i),

Feruza JALILOVA

(Bosh muharrir o'rinnbosari),

Sobirjon SHARIPOV

(Xorazm viloyati Xalq ta'limi

boshqarmasi boshlig'i),

Nurxon NAFASOV

(O'zbekistonda xizmat

ko'rsatgan sport ustasi),

Ergashvoy SARIQOV

(Iqtisod fanlari doktori).

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligida

022-raqam bilan 2003-yil 11-dekabrda ro'yxatdan o'tgan.

Noshir:

«O'zbekiston»

nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston»

nashriyot-matbaa ijodiy uyi kompyuter bo'limida terib sahilalandi va chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi. Hajmi A-3, 2 bosma taboq.

Adadi - 58001

Buyurtma N: J 3197

Dizayner va sahifalovchi:
Fazliddin SHOYODGOROV

Navbatchi:

Ma'mura MADRAHIMOVA

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong1924@mail.ru

Tel: 144-27-25

144-63-08

Tel/faks:

(99871) 144-38-10